



ANDIJON VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

*2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*

*Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi
Adliya vazirligi Davlat xizmatlari markazi
ma'lumotlar bazasi asosida shakllantirildi*

So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, faol tadbirkorlik, innovatsion g‘oyalar va bunyodkorlik salohiyatini qo‘llab-quvvatlash orqali aholiga munosib hayot sharoitlarini yaratish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, bandlikni ta‘minlash bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.


Xususan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘ini hisoblanib, bugungi kunda mazkur sohani jadallik bilan rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning safini yanada kengaytirish va rag‘batlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilyapti.

Jumladan, 2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra viloyatda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni (fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari) 28 486 tani tashkil etdi, ulardan 23 116 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalar.

Shuningdek, ushbu davrga 52 456 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘shirish sur‘ati 104,3 foizni tashkil etdi.

Korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida umumiy ma‘lumotlar


fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari, 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda.




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni 2 793 tani tashkil etdi.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar sonining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 2 328 ta, oilaviy korxonalar 311 ta, xususiy korxonalar 51 tani tashkil etgan.



Hududlar kesimida

Andijon sh.	571	7,7 %	Izboskan t.	141	10,1 %
Andijon t.	228	10,1 %	Xo'jaobod t.	139	11,3 %
Qo'rg'ontepa t.	216	15,0 %	Ulug'nor t.	135	16,8 %
Baliqchi t.	197	11,5 %	Buloqboshi t.	129	14,2 %
Asaka t.	182	7,4 %	Jalaquduq t.	128	9,6 %
Bo'ston t.	158	15,6 %	Marhamat t.	123	9,4 %
Oltinko'l t.	150	9,9 %	Paxtaobod t.	95	7,8 %
Shahrixon t.	150	7,8 %	Xonobod sh.	51	9,8 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 96,4 foizni tashkil etdi.


Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 30,3 foiz, sanoat – 18,1 foiz, qurilish – 6,6 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 5,3 foiz, hududiy kesimda eng ko'p Andijon shahrida – 26,1 foiz, Asaka – 8,6 foiz, Andijon – 8,0 foiz, Shahrixon – 6,8 foiz va Baliqchi – 6,0 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	7 439	Jalaquduq t.	1 338
Asaka t.	2 447	Marhamat t.	1 305
Andijon t.	2 267	Xo'jaobod t.	1 233
Shahrixon t.	1 925	Paxtaobod t.	1 214
Baliqchi t.	1 713	Bo'ston t.	1 014
Oltinko'l t.	1 519	Buloqboshi t.	911
Qo'rg'ontepa t.	1 441	Ulug'nor t.	805
Izboskan t.	1 397	Xonobod sh.	518

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat



Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Davlatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qulay shart-sharoitlar yaratib borish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida ularning yildan-yilga investitsiya va ishbilarmonlik muhiti yaxshilanib borayotgani namoyon bo'lmoqda. 2024-yil yanvar-iyul oylarida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2 693 ta bo'lib, shundan:

- mikrofirmalar va kichik korxonalar 2 691 ta;
- yirik korxonalar 2 tani tashkil etdi.



Hududlar kesimida

Andijon sh.	542	8,6 %	Izboskan t.	138	12,4 %
Andijon t.	219	11,3 %	Xo'jaobod t.	134	13,3 %
Qo'rg'on t.	212	19,2 %	Ulug'nor t.	132	20,4 %
Baliqchi t.	195	13,9 %	Buloqboshi t.	127	18,3 %
Asaka t.	174	8,7 %	Jalaquduq t.	124	11,8 %
Bo'ston t.	147	17,8 %	Marhamat t.	120	11,2 %
Oltinko'l t.	146	11,9 %	Paxtaobod t.	91	9,7 %
Shahrixon t.	142	9,3 %	Xonobod sh.	50	11,9 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar


Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 2024-yil 1-avgust holatiga 23 254 taga yetib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 95,3 foizni tashkil etdi. Ularning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi (umumiy sonidagi ulushi) quyidagicha bo'ldi: savdo – 37,2 foiz, sanoat – 22,1 foiz, qurilish – 8,0 foiz, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi – 6,3 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 5,6 foiz, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 3,9 foiz, tashish va saqlash – 3,7 foiz, axborot va aloqa – 1,8 foiz, boshqa turlari – 11,4 foiz.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	6 271	Marhamat t.	1 068
Asaka t.	2 010	Jalaquduq t.	1 049
Andijon t.	1 945	Xo'jaobod t.	1 009
Shahrixon t.	1 522	Paxtaobod t.	940
Baliqchi t.	1 402	Bo'ston t.	826
Oltinko'l t.	1 232	Buloqboshi t.	695
Izboskan t.	1 114	Ulug'nor t.	648
Qo'rg'ontepa t.	1 104	Xonobod sh.	419

2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda


Yillar kesimida soni



Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo



Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Mamlakat iqtisodiyotining "sog'lomligi"ni baholashning muhim omili – kichik biznes subyektlarining samarali faoliyat ko'rsatishi bo'lib, bu uning moslashuvchanligi va doimiy o'zgaruvchan iqtisodiy vaziyatlarga moslasha olish ko'rsatkichidir.

Shunda, 2024-yil yanvar-iyul oylarida sanoat sohasida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2023-yilning mos davriga nisbatan –539 tadan 655 taga (o'sish 116 taga), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 105 tadan 184 taga (o'sish 79 taga) ko'paydi.



Hududlar kesimida

Andijon sh.	540	8,7 %	Izboskan t.	138	12,4 %
Andijon t.	219	11,3 %	Xo'jaobod t.	134	13,4 %
Qo'rg'ontepa t.	212	19,3 %	Ulug'nor t.	132	20,5 %
Baliqchi t.	195	14,0 %	Buloqboshi t.	127	18,4 %
Asaka t.	174	8,7 %	Jalaquduq t.	124	11,9 %
Bo'ston t.	147	17,9 %	Marhamat t.	120	11,3 %
Oltinko'l t.	146	11,9 %	Paxtaobod t.	91	9,7 %
Shahrixon t.	142	9,4 %	Xonobod sh.	50	12,0 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Hududlar kesimida eng ko'p kichik biznes subyektlarining ulushi Andijon shahrida (27,0 foiz), Asaka (8,8 foiz), Andijon (8,4 foiz), Shahrixon (6,6 foiz) va Baliqchi (6,0 foiz) tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda. Ushbu hududlarda jami kichik biznes subyektlari sonining 50,0 foizdan ortig'i faoliyat ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, ayni paytda kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlarida ilg'or faoliyat yuritmoqda.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	6 212	Marhamat t.	1 062
Asaka t.	2 001	Jalaquduq t.	1 043
Andijon t.	1 937	Xo'jaobod t.	1 002
Shahrixon t.	1 517	Paxtaobod t.	937
Baliqchi t.	1 397	Bo'ston t.	822
Oltinko'l t.	1 228	Buloqboshi t.	691
Izboskan t.	1 111	Ulug'nor t.	644
Qo'rg'ontepa t.	1 097	Xonobod sh.	415

Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat
ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar
2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Hududlar kesimida


Asaka t.	187
Andijon t.	136
Baliqchi t.	126
Marhamat t.	118
Qo‘rg‘ontepa t.	117
Ulug‘nor t.	109
Jalaquduq t.	98
Bo‘ston t.	95
Paxtaobod t.	92
Shahrixon t.	81
Oltinko‘l t.	77
Izboskan t.	75
Andijon sh.	73
Xo‘jaobod t.	57
Buloqboshi t.	44
Xonobod sh.	14



O‘zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning chuqur o‘ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy islohotlarining muhim tarkibiy qismlaridan biri meva-sabzavot yetishtirishga qaratilgan. Bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to‘liq ta‘minlash, ularning salomatligini saqlash va bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo‘nalishlardan biriga aylandi.


Baliq ovlash va akvakultura



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda


Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 357
Andijon t.	560
Asaka t.	429
Shahrixon t.	366
Xo'jaobod t.	327
Baliqchi t.	270
Oltinko'l t.	251
Jalaquduq t.	241
Qo'rg'ontepa t.	234
Izboskan t.	219
Marhamat t.	191
Buloqbohi t.	190
Paxtaobod t.	166
Bo'ston t.	156
Xonobod sh.	110
Ulug'nor t.	103



Sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi.


Sanoat korxonalari soni jami korxonalar va tashkilotlarning 18,1 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 95,4 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 93,7 foizni), 1,8 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish (97,0 foizni), 2,1 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (87,0 foizni) hamda 0,7 foizini elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (128,6 foizni) tashkil etgan.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	625
Asaka t.	183
Andijon t.	147
Shahrixon t.	139
Bo'ston t.	100
Oltinko'l t.	97
Izboskan t.	79
Baliqchi t.	73
Marhamat t.	69
Xo'jaobod t.	63
Paxtaobod t.	62
Qo'rg'on tepa t.	56
Buloq boshi t.	49
Ulug'nor t.	48
Jalaquduq t.	37
Xonobod sh.	30



Viloyatimizda qurilish sanoati iqtisodiyotning ustuvor tarmog'i sifatida belgilangan. Qurilish sanoatining yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 53,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 84,6 foizni tashkil etdi;
- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,3 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,6 foizni tashkil etdi;
- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 31,0 foiz ulushni va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 90,4 foizni tashkil etdi.

284



Fuqarolik
obyektlarini qurish

576

Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

997


Bino va
inshootlar qurish



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 985
Asaka t.	708
Andijon t.	688
Baliqchi t.	636
Shahrixon t.	587
Oltinko'l t.	513
Izboskan t.	479
Jalaquduq t.	475
Qo'rg'on t.	453
Paxtaobod t.	403
Xo'jaobod t.	370
Marhamat t.	363
Bo'ston t.	313
Ulug'nor t.	277
Buloqboshi t.	238
Xonobod sh.	154



Tahlillar shuni ko'rsatdiki, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan har uchinchi korxonalar savdo sohasida faoliyat yuritadi, ularning 99,7 foizi yoki 8 619 tasi kichik biznes subyektlariga to'g'ri keladi.

Savdo sohasining yo'nalishlar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishi 63,1 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 94,2 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 29,7 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 95,6 foizni tashkil etdi;

- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,2 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 103,3 foizni tashkil etdi.

621

Avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash

2 567

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo


5 454

Avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	470
Andijon t.	120
Asaka t.	93
Shahrixon t.	73
Qo'rg'ontepa t.	64
Oltinko'l t.	63
Baliqchi t.	62
Jalaquduq t.	57
Izboskan t.	51
Marhamat t.	50
Paxtaobod t.	45
Ulug'nor t.	44
Xonobod sh.	40
Buloqboshi t.	36
Xo'jaobod t.	30
Bo'ston t.	27



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar 2023-yilning mos davriga nisbatan 108,9 foizni tashkil etdi. Ushbu xizmatlar sohasi tahlili shuni ko'rsatdiki:

- mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyati hisoblanib, 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning 5,6 foiz ulushini tashkil etdi;

- restoran va buyurtma bo'yicha oziq-ovqat va ovqat mahsulotlarini yetkazish, oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 94,4 foiz ulushini tashkil etdi.

74

Yashash bo'yicha xizmatlar



1 251


Oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	146
Baliqchi t.	42
Marhamat t.	37
Xo'jaobod t.	27
Andijon t.	22
Buloqbooshi t.	22
Asaka t.	20
Paxtaobod t.	20
Shahrixon t.	18
Oltinko'l t.	16
Ulug'nor t.	16
Qo'rg'ontepa t.	14
Jalaquduq t.	10
Izboskan t.	9
Bo'ston t.	7
Xonobod sh.	3



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra noshirlik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,3 foizini tashkil etdi.

Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 47,8 foizini tashkil etdi.


Kompyuter dasturlashtirish va axborot xizmati ko'rsatish yo'nalishlarida esa korxonalar soni, axborot va aloqa sohasidagi korxonalar va tashkilotlarning 38,9 foizini tashkil etdi.



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	343
Asaka t.	79
Shahrixon t.	70
Andijon t.	68
Baliqchi t.	57
Oltinko'l t.	55
Izboskan t.	50
Paxtaobod t.	47
Xo'jaobod t.	46
Marhamat t.	43
Qo'rg'ontepa t.	40
Jalaquduq t.	40
Buloqboshi t.	32
Xonobod sh.	14
Bo'ston t.	10
Ulug'nor t.	9



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar va tashkilotlarning salmoqli qismi – 920 ta yoki 91,7 foiz ulushi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Yo'nalishlar bo'yicha tahlil shuni ko'rsatdiki:

96,3 foiz korxonalar sog'liqni saqlash yo'nalishiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,1 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishidagi korxonalar soni 2,3 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,5 foizni tashkil etdi;

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,4 foizini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 155,6 foizni tashkil etdi.

14

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

23




966

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Hududlar kesimida

Andijon sh.	310
Asaka t.	80
Andijon t.	55
Bo'ston t.	52
Shahrixon t.	47
Paxtaobod t.	46
Marhamat t.	45
Xo'jaobod t.	35
Oltinko'l t.	32
Qo'rg'ontepa t.	31
Izboskan t.	31
Baliqchi t.	27
Buloqboshi t.	22
Jalaquduq t.	22
Ulug'nor t.	14
Xonobod sh.	8



2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar, jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,0 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlarining yo'nalishlari bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatdiki:


- quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 70,7 foiz ulushini tashkil etdi;
- ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishidagi korxonalar soni 28,0 foizni;
- pochta va kuryerlik yo'nalishidagi korxonalar soni 1,2 foizni;
- havo transporti yo'nalishidagi korxonalar soni 0,1 foizni tashkil etdi.



Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha umumiy ma’lumot
2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni

Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi




Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning biriktirilishi, shakllantirilishi va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog‘liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma’lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta’minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


2024-yil yanvar-iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yangi tashkil etilganlarning faoliyat ko'rsatayotganlarga nisbati (foizda)

Yillar kesimida soni




Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi




Savdo




Axborot va aloqa




Sanoat




Tashish va saqlash




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Mas'uliyati cheklangan jamiyati – bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalarini qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagani ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	503	9,2 %	Izboskan t.	125	13,0 %
Andijon t.	183	11,5 %	Xo'jaobod t.	125	13,9 %
Baliqchi t.	177	15,1 %	Jalaquduq t.	116	12,8 %
Qo'rg'ontepa t.	160	19,6 %	Marhamat t.	116	12,4 %
Asaka t.	153	10,5 %	Paxtaobod t.	90	10,4 %
Oltinko'l t.	128	12,6 %	Buloqboshi t.	77	13,8 %
Ulug'nor t.	127	21,9 %	Bo'ston t.	77	14,0 %
Shahrixon t.	127	9,9 %	Xonobod sh.	44	12,0 %

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024-yil 1-avgust holatiga amaldagi 23 254 ta tijorat korxonasi va tashkilotlaridan ma'suliyati cheklangan jamiyatlar 19 431 tani tashkil etib, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinda turadi. Shuni xulosa qilishimiz mumkinki, mazkur korxonalar mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyatining eng ko'p tarqalgan shakli hisoblanadi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	5 494	Jalaquduq t.	908
Andijon t.	1 589	Xo'jaobod t.	897
Asaka t.	1 458	Paxtaobod t.	864
Shahrixon t.	1 284	Qo'rg'on t.	816
Baliqchi t.	1 170	Ulug'nor t.	581
Oltinko'l t.	1 015	Buloqboshi t.	558
Izboskan t.	962	Bo'ston t.	549
Marhamat t.	932	Xonobod sh.	354

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish



Boshqa turlar

2024-yil 1-avgust holatiga tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni o'zaro taqqoslanganda, ikkinchi o'rinni xususiy korxonalar egallagan. Xususiy korxonalar sonining eng ko'pi quyidagi hududlarda qayd etilgan:

Andijon shahrida – 470 ta, Asaka – 327 ta, Baliqchi – 185 ta va Andijon tumanlarida – 124 ta. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha esa xususiy korxonalar quyidagicha taqsimlangan: savdo sohasida – 823 ta, sanoat – 362 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 155 ta, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida – 154 ta.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	470	Marhamat t.	105
Asaka t.	327	Xo'jaobod t.	98
Baliqchi t.	185	Izboskan t.	74
Andijon t.	124	Bo'ston t.	60
Shahrixon t.	118	Buloqboshi t.	55
Qo'rg'ontepa t.	117	Paxtaobod t.	52
Oltinko'l t.	116	Ulug'nor t.	37
Jalaquduq t.	111	Xonobod sh.	34

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o'sish, kamayish sur'ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Savdo



Axborot va aloqa



Sanoat



Tashish va saqlash

Sog'liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko'rsatish

Qurilish



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



Boshqa turlar

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra 2023-yilning mos davriga nisbatan 109,8 foizni tashkil etdi.

Bu esa quyidagi sohalardagi korxonalar: yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 147 tadan 189 taga (o'sish 42 taga), sanoatda – 566 tadan 610 taga (o'sish 44 taga) hamda tashish va saqlash sohasida – 22 tadan 41 taga (o'sish 19 taga) sezilarli oshishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimida


Andijon sh.	240	Izboskan t.	67
Andijon t.	219	Baliqchi t.	39
Bo'ston t.	209	Xonobod sh.	27
Asaka t.	208	Ulug'nor t.	25
Qo'rg'ontepa t.	157	Marhamat t.	20
Shahrixon t.	110	Jalaquduq t.	19
Oltinko'l t.	90	Paxtaobod t.	15
Buloqboshi t.	75	Xo'jaobod t.	9

Faoliyat ko‘rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumot

2024-yil 1-avgust holatiga ko‘ra, birlikda

Yillar kesimida soni

Yillar kesimida o‘shish, kamayish sur‘ati (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi



Sanoat



Qurilish



Savdo



Tashish va saqlash



Yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar



Axborot va aloqa



Sog‘liqni saqlash va
ijtimoiy xizmat ko‘rsatish



Boshqa turlar

Chet el investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 2023-yilning mos davriga nisbatan 312 tadan 317 taga (o‘shish 5 taga) ko‘paydi.

Yetakchi o‘rinni 85 ta korxonada to‘liq yoki qisman ulushi mavjud bo‘lgan Xitoy Xalq Respublikasi egallagan. Bu, viloyatda chet el investitsiyalari ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 26,8 foiz ulushini tashkil etadi. Shuningdek, Andijon viloyati iqtisodiyotiga o‘z kapitalini kiritayotgan Rossiya (ulushi 19,2 foiz), Turkiya (ulushi 14,5 foiz), Qirg‘iz Respublikasi (ulushi 13,2 foiz) va Janubiy Koreya (ulushi 9,1 foiz) davlatlari ham yetakchilar hisoblanadilar.

Hududlar kesimida

Andijon sh.	121	Marhamat t.	13
Andijon t.	22	Xonobod sh.	13
Oltinko‘l t.	19	Xo‘jaobod t.	11
Shahrixon t.	19	Baliqchi t.	11
Izboskan t.	18	Bo‘ston t.	8
Asaka t.	17	Qo‘rg‘ontepa t.	7
Jalaquduq t.	15	Paxtaobod t.	5
Buloqboshi t.	14	Ulug‘nor t.	4

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu, ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Buning samarasida, bugungi kunda O'zbekiston iqtisodiyotning turli tarmoqlarida tadbirkorlik faoliyatini yuritish va investitsiyalarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan ichki sharoitlarni yaratish jarayonini rag'batlantirishga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilayotgani kuzatilmoqda.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan jami korxonalar 317 ta bo'lib, shundan 127 tasi qo'shma va 190 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda

xorijiy korxonalar

qo'shma korxonalar

81	Andijon sh.	40
12	Oltinko'1 t.	7
13	Izboskan t.	5
10	Andijon t.	12
12	Jalaquduq t.	3
9	Shahrixon t.	10
8	Asaka t.	9
8	Xonobod sh.	5
7	Xo'jaobod t.	4
6	Buloqboshi t.	8
5	Marhamat t.	8
6	Baliqchi t.	5
4	Bo'ston t.	4
4	Qo'rg'ontepa t.	3
3	Ulug'nor t.	1
2	Paxtaobod t.	3

2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra, birlikda



So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotni jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes hamda sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda.

Demak, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tuzilishidagi, real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reyestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reyestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 7-iyundagi PF-5739-son hamda 2022-yil 20-aprel PF-113 Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 21-avgustdagi 704-son qarori bilan:

- tijorat korxonalarini hisobiga 9 oy davomida pul mablag'lari tushmaganligi yuzasidan banklar davlat soliq organlarini tizim orqali xabardor qilishi;

- shundan so'ng, davlat soliq organlari taqdimnomasiga asosan Davlat xizmatlari markazlari korxonani harakatsiz holatga o'tkazishi va bu haqida davlat reyestriga hamda Tizimga tegishli yozuv kiritiladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2024-yil 1-avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri

Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Statistika agentligining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, soʻralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qoʻyilgan.



**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish boʻlimi
Tel.: 74 228-29-74**